

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>P.S.Otaqulov</b>	
Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv .....	92
<b>B.M.Dehqonov</b>	
Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash .....	97
<b>X.Sh.Djo'raboyeva</b>	
An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni.....	101
	ILMIY AXBOROT
<b>M.K.Usmonaliyeva</b>	
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi.....	105
<b>O.N.Fozilova</b>	
Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarida qahramon talqini.....	108
<b>J.J.Mamatisakov</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli .....	113
<b>N.B.Yuldasheva</b>	
Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari.....	121
<b>G.O.Abdujalilova</b>	
Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi .....	124
<b>X.Z.Umarova</b>	
Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» .....	127
<b>D.Hakimova</b>	
Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish .....	130
<b>G'.M.Alamov</b>	
Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati .....	135
<b>A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova</b>	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish.....	139
<b>S.R.Xoliqov</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari .....	143
<b>M.A.Алиева</b>	
Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мерещковского .....	147
<b>A.Y.Ergashev</b>	
Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari .....	152
<b>Z.X.Oxunova</b>	
Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni .....	155
<b>X.J.Isomiddinov</b>	
Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari.....	158
<b>R.D.Mustayev</b>	
Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati .....	161
<b>B.I.Muxtoraliev</b>	
Ilk hikoyalaridagi ijodiy o'ziga xoslik .....	165
<b>D.S.Abdugodirov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	171
<b>M.M.Azizov</b>	
Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking .....	174
<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi.....	181
<b>G.T.Dadamirzayeva</b>	
Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri.....	191

**CHOR ROSSIIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA TURKISTON O'LKASIDA MILLIY  
MATBUOTNING VUJUDGA KELISHI****СОЗДАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕССЫ В СНОМ КРАЕ ТУРКЕСТАН ВО ВРЕМЯ  
ПРАВЛЕНИЯ ЦАРСКОЙ РОССИИ****THE ESTABLISHMENT OF A NATIONAL PRESS IN THE COUNTRY OF TURKESTAN  
DURING THE RULE OF CHERISH RUSSIA****Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada XX asr boshlarida Chor Rossiyasi hukmronligi ostidagi Turkiston o'lkasida milliy nashrlarning vujudga kelishi, sabablari, yaratilgan gazeta va jurnallar, jadid ma'rifatparvarlarining milliy matbuotga qo'shgan hissalar, ularda yoritilgan mavzular, ularning taqdiri qanday yakun topganligi qisqacha yoritilishga harakat qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье предпринята попытка кратко осветить возникновение национальных изданий в Туркестане под властью царской России в начале XX века, причины создания газет и журналов, вклад современной интеллигенции в национальное дело. пресса, темы, затронутые в них, и чем закончилась их судьба.*

**Abstract**

*In this article, an attempt was made to briefly cover the emergence of national publications in Turkestan under the rule of Tsarist Russia in the beginning of the 20th century, the reasons for the creation of newspapers and magazines, the contributions of modern intellectuals to the national press, the topics covered in them, and how their fate ended.*

**Kalit so'zlar:** Jadidlar, milliy matbuot, "Tarjimon", Ismoil Gaspirali, "Taraqiy", Ismoil Obidov, "Sadoi Turkiston", "Sho'roi Islom", "Osiyo", "Farg'ona sahifasi"

**Ключевые слова:** Джадиды, национальная пресса, «Переводчик», Исмаил Гаспирали, «Таракки», Исмаил Обидов, «Садои Туркестан», «Шуруй Ислам», «Азия», «Ферганская страница»

**Key words:** Jadidlar, national press, "Translator", Ismail Gaspirali, "Taraqiy", Ismail Obidov, "Sadoi Turkistan", "Sho'roi Islam", "Asiyo", "Fergana page"

**KIRISH**

Tarixdan barchamizga ma'lumki, Chor Rossiyasi mahalliy xalqlarning savodli bo'lishidan aslo manfaatdor bo'lmagan. Shu boisdan ham u mustamlaka xalqlarining milliy ongining yuksalishiga xizmat qiladigan vositalar: maktablar, teatr, milliy ruhni aks ettiruvchi adabiyotlarning yaratilishiga qarshi bo'lgan. Shu bilan birgalikda tub aholiga mo'ljallangan milliy tildagi davriy nashrlarning mavjud bo'lishiga uzoq muddat yo'l qo'ymadi. 1906-yilgacha butun Turkiston o'lkasida general-gubernatorlikning rasmiy nashri bo'lgan "Turkiston viloyatining gazet" dan boshqa birorta milliy gazeta nashr qilinmaganligidan ham buni bilib olishimiz mumkin. Butun ijtimoiy o'zgarishlar, asosan, Turkistonning rus aholisi istiqomat qiladigan qismidagina kechar, mahalliy aholini bu o'zgarishlarga tortish uchun hech qanday islohot amalga oshirilmas edi. Bu masalaga "Turkiston viloyatining gazet" muharriri: "Mahalliy aholiga mansub kishilarni hamkorlikka jalb qilib bo'lmaydi, chunki ular matbuot shartlarini tushunmaydilar va o'z xabarlarida shaxsiy manfaatlaridan voz kecha olmaydilar" [1], - deb izoh bergan.

**MAVZUNING DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLATI**

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"[2]. Bugungi kunda jadidlar faoliyati, ularning noshirlik, matbaachilik faoliyatini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki bugun Yangi O'zbekistonni barpo etishning tamal toshi hisoblangan "Uchinchi Renessans" g'oyasi ham bevosita jadidlarimiz faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham XX asr boshlarida Turkistonda milliy nashrlarning vujudga kelishi, matbuotchilik faoliyati, uning jadidlar faoliyatidagi o'rni, bu jarayonni yutuq va kamchiliklarini tahlil va talqin etish, xulosa chiqarish bugungi kun uchun muhim vazifa hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqola umumiy qabul qilingan tarixiy metodlar- tarixiylik, ketma-ketlik, xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil qilish, solishtirish kabi tamoyillarga asosan yoritilgan.

Turkistonda matbuotchilik faoliyatining yuzaga kelishi va rivojlanishiga oid yaratilgan manbalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Bular:

- 1) Sovet davlati davrida yaratilgan tadqiqot ishlari;
- 2) Mustaqillikdan keyingi tadqiqotlar

Birinchi guruhda matbaachilikka oid tadqiqotlarda asosan Turkistonda matbaachilikning yuzaga kelishi ularning noshirlik faoliyati yoritilgan bo'lib, ularni asosan, T.Ernazarov [3], A.Boboxonov[4], Z.Abdurashidov[5] Ziyo Said[6], F.N.Rojinskaya[7] va boshqalar tadqiq etishgan.

Ikkinchi guruhga, yurtimiz mustaqillikka erishgach amalga oshirilgan tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin. Bu davrda N.A.Abdudzizova[8] A.Kattaboyev[9], T.Pidayev[10], S.Shodmonova[11], A.Mirzorahimov [12] va boshqalar shu mavzuda kitob, dissertatsiya va maqolalar yozgan.

Bundan tashqari mavzuni chuqur o'rganishga XX asr boshlarida jadid namoyondalari tomonidan yaratilgan gazeta va jurnallar asos bo'lib xizmat qiladi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkistonda milliy ruhdagi dastlabki mustaqil nashrlar 1905-1907-yillardagi inqilob davrida vujudga keldi. Shubhasiz, bu o'lka ijtimoiy hayotida muhim tarixiy ahamiyatga molik voqea edi. Inqilobdan sarosimaga tushgan hukumat ko'p sohalarda bo'lganligi kabi matbuot sohasida ham yon berishga majbur bo'ldi. Ilg'or musulmon ziyolilari bundan foydalanib, davriy nashrlar chiqarish to'g'risida ruxsatnoma olishga erishdilar. Milliy matbuotning asosiy tashabbuskorlari jadidlar edi. Jadidlar Turkiston xalqini ma'rifatli qilish; yurtni obod qilish orqali taraqqiyotga erishishni orzu qilishgan. Milliy matbuotni yaratish - shu orzuga erishish vositasi deb bilishgan. Jadidlar davriy nashrlar faoliyatini tashkil qilishda mahalliy rus gazetalari, turli hududlarida tatar tilida chiqqan gazeta va jurnallar bilan, shuningdek, Ismoil Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasining tajribasiga tayangan.

XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasida bir qancha milliy nashrlar: «Taraqqiy» (1906-1907, Toshkent, muxarriri Ismoil Obidov), «Xurshid» (1906-1907, Toshkent, muxarriri Munavvarqori), «Shuxrat» (1907- 1908, Toshkent, muxarriri Abdulla Avloniy), «Osiyo» (1908, Toshkent, muxarriri Ahmadjon Bektemirov), «Buxoroi Sharif» (1912-1913, tojik tilida, Buxoro, muxarriri Mirzo Jalol Yusufzoda, noshiri Mirbadalov), «Turon» (1912, Buxoro, muxarriri Mirbadalov), «Samarqand» (1914, Samarqand, muxarriri Mahmudxo'ja Behbudiy), «Sadoi Farg'ona» (1914-1915, Qo'qon, muxarriri Ashurali Zoxiriy, noshiri Obidjon Maxmud), «Sadoi Turkiston» (1914-1915, Toshkent, muharrirlari Munavvarqori va Ubaydulla Xo'ja)[13] vujudga keldi. Bu nashrlarning asosiy tashkilotchilari jadidchilik harakati yetakchilari bo'lgan.

Turkiston o'lkasida nashr etilgan milliy ruhdagi dastlabgi gazeta "Taraqqiy"dir. Gazetaga 1906-yil 14-iyunda Ismoil Obidov asos solgan. Birinchi soni esa 27-iyunda chop etilgan. Cho'lpon "Taraqqiy" gazetasini haqida: "Taraqqiy – taraqqiyparvar bir gazeta bo'lib, muharriri ichki Rusiya totorlaridan Ismoil Obidiy yo'ldosh edi. Oktyabr inqilobidan so'ngra bu kishi so'l susiyolist revolyusioner firqasi vakili o'laroq doxiliya ko'misori mansabinda bo'lindi. Ikki oy qadar davom etgandan so'ngra xukumat tarafidan bekitildi"[14], - deb yozadi. Cho'lpon ma'lumotlari orqali gazetaning ikki oygina faoliyat yuritgandan so'ng yopilganini bilib olamiz. Ziyo Saidning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)" asarida gazeta va uning muharriri haqida: "Qora guruh ulamolari bilan qattiq tortishdi, ularni xalq orasida obro'larini tushirishga harakat qildi. Orasira hukumatga ham tegib turdi. Mazkur gunohlari uchun 20–nomeriga yetganda hukumat tomonidan musodara etilib, muharriri qamoqqa olindi", deb yozgadi[15]. T.Ernazarovning "Turkistonda vaqtli matbuot" asarida "Taraqqiy" gazetasini "Русский Туркестан" gazetasini qo'llab-quvvatlab turganligi va gazeta redaktori I.Gabitoev "Русский Туркестан" bilan yaqindan aloqalar olib borganligini aytadi[16].

Turkistonda keyinchalik nashr etilgan "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalari, "Oyina" jurnalining ham milliy matbuotchilik tarixida o'zni beqiyos. Masalan, Turkiston jadidlarining otasi - Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etgan "Oyina" jurnali o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnal hisoblanadi. Ikki yil davomida uning 68 ta soni (jami 1720 bet) nashr etilgan. So'nggi son 1915-yil 15-iyunda chiqqan[17]. 1913-yil 20-avgustda tashkil etilgan "Oyina" jurnalining yuzaga kelishida Behbudiyning ruhantirgan omil dastlabgi tatar jurnali "Mir'ot"(Oyina) bo'ldi [18]. "Oyina" millat uchun yaratilgan edi. Bu haqida Behbudiy: "... majalla bizniki emas, millatnikidir", - degan [19].

O'sha davrda yaratilgan yana bir milliy ruhdagi gazeta bu 1914-yil 4-aprelda chiqishni boshlagan "Sadoi Turkiston" gazetasidir. Gazeta haqida Behbudiy shunday fikr bildirgan: "...Qalam ila, aqcha ila mo'tabar "Sadoi Turkiston" hozir haftada ikki va tadrijan yavmiy o'lur. Sanaligi 4 so'm, yarim sana 2 so'm 540 tiyin, uch oylig'i 1 so'm 50 tiyin. Mahalli nashri Toshkand. Mudir va noshir muharriri ahli huquq-da'vo vakili Ubaydulloh Xo'ja janoblaridir"[20]. Ushbu ma'lumotlar orqali "Sadoi Turkiston" gazetasining necha marta nashr etilishi, narxi, muharriri, qayerda nashr etilganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Ushbu nashrlarning taqdiri haqida to'xtaladigan bo'lsak, "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Osiyo" kabi gazetalar rus ma'murilari tomonidan qattiq tanqid etilib, chop etilishi taqiqlangan bo'lsa, boshqa milliy nashrlar moliyaviy qiyinchiliklar sababli chiqishdan to'xtagan (masalan, "Samarqand" gazetasi).

Fevral inqilobidan so'ng Turkiston matbuotchilik tizimida ham yangi davr boshlanib, endi o'lka hayotini demokratik asosda yangilash talabi bilan chiqqan yangi nashrlar vujudga keldi. "Turon", "Najot", "Turk eli", "El bayrog'i" "Ulug' Turkiston", "Hurriyat", kabi gazetalar va "Chayon", "Yurt" jurnallari shular jumlasidandir. Ushbu nashrlarning ham asosiy tashkilotchilari jadidlar bo'lib, masalan, "Najot" gazetasiga Munavvarqori, "Turon" gazetasiga Abdulla Avloniy rahbarlik qilishgan. Behbudiyning "Hurriyat" gazetasi o'sha davrning o'ta dolzarb ijtimoiy-siyosiy mavzularida qator maqolalar chop etgan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Turkiston ravnaqi, millat kamoloti, xalqni savodli qilish kabi maqsadlarni o'z faoliyatlarining asosiy mezonini qilib olgan bunday nashrlar yurt istiqloli va istiqboliga aloqador bo'lgan muammolarga katta e'tibor berganliklari bilan o'sha davrda yaratilgan boshqa gazeta va jurnallardan ajralib turadi. Turkistonda XX asr boshlarida nashr etilgan milliy nashrlarda insonlarni doimo hamjihatlikka, savodli bo'lishda, dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga befarq bo'lmaslikka, adolatli, insofli bo'lishga chorlovchi, turli xil bid'atlardan, mutaassiblik, jaholat va loqaydlikdan uzoq bo'lishga da'vat etuvchi maqolalar chop etilganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ularning ko'pchiligi doimiy ravishda ta'qib ostida bo'lgan va juda qisqa muddatlik faoliyatidan so'ng chiqishi ta'qiqlab qo'yilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Пидаяев Т. Матбуот миллат чироғи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – Б. 5.
- [2] Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola.– Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – B. 3
- [3] T.Ernazarov "Turkistonda vaqtlı matbuot"(1870-1924). T., O'zbekiston SSR davlat nashryoti. 1959.
- [4] Boboxonov A. O'zbek matbaasi tarixidan. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti. Toshkent. 1979.
- [5] Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy: risola. Toshkent: "Yoshlar" nashriyoti uyi. 2022.
- [6] Said Ziyov. O'zbek vaqtlı matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). –Toshkent-Samarqand: O'zdamnashr, 1927. – 180 b.
- [7] Рожинская Ф. Н. Из истории развития книгоиздательского дела в Узбекистане (1918- 1937 гг.): Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент: АН УзССР. Ин-т истории и археологии, 1969. – 24 с.
- [8] Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). Toshkent. "Akademiya". 2000
- [9] Kattaboev A. O'zbekiston kitob nashri tarixiga doir // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – T., 1998. – № 2. – B. 43 – 45.
- [10] Pidaev T., Do'stqoraev B. "Taraqqiy" – ilk o'zbek milliy gazetasi // Xalq so'zi. 1993. 14 iyun.
- [11] Shodmonova S. 1917 yilda Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning davriy matbuotdagi monitoringi // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – T., 2006. –№ 1 (33). – B. 173 – 177.;
- [12] Mirzorahimov A. O'rta Osiyoda toshbosma kitob tarixi (XIX asr oxiri –XX asr boshlari): Tarix fan. nomz. ... diss. – T., 2009. – 140 b.
- [13] B.Do'stqorayev. Turkiston jadidlarining yirik siyosati.«Jahon adabiyoti» jurnali, 1998. 3-son, 146-bet.
- [14] Abduazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (Genezis va evolyutsiya ). Birinchi jild, – T.: Sharq, 2008. – B. 96.
- [15] Ziyov Said. Tanlangan asarlar.(To'plovchi Sh. Turdiyev). T., Adabiyot va san'at nashryoti, 1974. – B.40
- [16] T.Ernazarov "Turkistonda vaqtlı matbuot"(1870-1924). T., O'zbekiston SSR davlat nashryoti. 1959. – B.67
- [17] Nishonova G.U. O'zbek publitsistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida "Oyna" jurnalining o'rni va ahamiyati : Filologiya fan.nom. ...diss. – T., 2008.
- [18] Abdurashidov Z., Egamqulova N. "Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Oyina" jurnali", Toshkent. Muharrir nashryoti. 2019
- [19] Maxmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006
- [20] Maxmudxo'ja Behbudiy. "Oyina". 1914-yil 15-aprel. №25